

4 – AMALIY ISHI



MAVZU: WWW.MY.GOV.UZ-YAGONA INTERAKTIV DAV-LAT XIZMATLARI PORTAL BILAN ISHLASH



**Ishning
maqsadi:**

Talabalarga internet va hukumat portallari haqida tushunchalar berish.

Qisqacha nazariy ma'lumotlar:

Nazariy ma'lumot.

Internet – bu yagona standart asosida faoliyat kursatuvchi jaxon global kompyuter tarmog'idir. Uning nomi «tarmoqlararo» degan ma'noni anglatadi.

U maxalliy kompyuter tarmoqlarini birlashtiruvchi axborot tizim bo'lib, o'zining aloxida axborot maydoniga ega bo'lgan virtual to'plamdan tashkil topadi.

Internet, unga ulangan tarmoqqa kiruvchi barcha kompyuterlarning o'zaro ma'lumotlar almashish imkoniyatini yaratib beradi. O'zining kompyuteri orqali internetning xar bir mijozi boshqa shaxar yoki mamlakatga axborot uzatishi mumkin. **Internet XX asrning** eng buyuk kashfiyotlaridan biri xisoblanadi. Ushbu kashfiyot tufayli butun jaxon bo'ylab yoyilib ketgan yuz milyardlab yagona axborot muxitga birlashtirish imkoniyati tug'ildi.

Foydalanuvchi nuqtai nazaridan taxlil qiladigan bo'lsak, internet birinchi navbatda tarmoq mijozlariga o'zaro ma'lumotlar almashish, virtual muloqot qilish imkoniyatini yaratib beruvchi «axborot magistral» vazifasini o'taydi, ikkinchidan esa unda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasi majmuasi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Bundan tashqari internet bugungi kunda dunyo bozorini o'rganishda, marketing ishlarini tashkil etishda zamonaviy biznesning eng muxim vositalaridan biriga aylanib bormoqda.

Internet va unga bog'lanishning umumiy shakli bilasiz. Unga asosan internetga bog'lanish va undan foydalanishning asosiy texnik vositasini shaxsiy kompyuterlar tashkil etadi. Uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun unga mikrofon, videokamera, ovoz chiqargich va boshqa qo'shimcha qurilmalar ulanishi mumkin. Internet xizmati «internet profayderlari» yordamida aloqa kanallari orqali amalga oshiriladi. Aloqa kanallari sifatida telefon tarmog'i, kabelli kanallar, radio va kosmos aloqa tizimlaridan foydalanish mumkin.

Internet tarmog'ining asosiy yacheykalari bu shaxsiy kompyuterlar va ularni o'zaro bog'lovchi lokal tarmoqlardir.

Internet aloxida kompyuterlar orasida aloqa urnatibgina qolmay, balki kompyuterlar guruhini o'zaro birlashtirish imkonini xam beradi. Agar biror –bir maxalliy tarmoq bevosita internetga ulangan bo'lsa, u xolda mazkur tarmoqning xar bir ishchi stansiyasi Internetga ulanishi mumkin. Shuningdek, internetga mustaqil ravishta ulangan kompyuterlar xam mavjud. Ularni xost-kompyuterlar xam deb atashadi. Tarmoqa ulangan xar bir kompyuter o'z adresiga ega va uning yordamida jaxonning istalgan nuqtasidagi istalgan mijoz uni topa olishi mumkin.

Intranet- internet texnologiyasi, dastur ta'minoti va protokollari asosida tashkil etilgan, xamda ma'lumotlar bazasi va elektron hujjatlar bilan kollektiv ravishta ishlash imkonini beruvchi korxona miqyosidagi yagona axborot muhitni tashkil qiluvchi kompyuter tarmog'idir.

Intranet boshqa kompyuter tarmoqlaridan qo'yidagi bilan farqlanadi. Bir yoki bir necha serverlardan tashkil etilgan tarmoq mijozi undagi elektron hujjat, ma'lumotlar bazasi va fayllardan foydalanish uchun, ularning qaysi serverda qaysi derektoriyada qanday nom bilan saqlanganligini, ularga kirish usul va shartlarini bilishi zarur bo'ladi.

Internet qidruv tizimi.

Axborot hayotimizda muhim ahamiyatga ega ekan, uni Internetdan kerakli vaqtda, zarur miqdorda, qisqa vaqt ichida olib turishimiz kerak bo'ladi. Lekin, Internetdan axborotni qisqa vaqt ichida olish muammosi ham bor. Bu darsda shu muammoni hal etish usullaridan birini ko'rib chiqamiz.

Qidiruv tushunchasi. Internet tarmog'idagi qidiruv tushunchasi shuni anglatadiki, bunda har bir foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan biror ma'lumot yoki materialni maxsus qidiruv tizimlari orqali topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Internet - bepoyon axborot ummoni. Axborotlar Internetda millionlab Web-sahifalarda saqlanadi. Bizga kerakli axborot saqlanadigan Web-sahifani topish uchun uning Internetdagi adresini bilish zarur. Ammo internet soat sayin yangi axborotlar bilan boyib boradi. Shuningdek, ba'zi (eskirgan) axborotlar Internet tarmog'idan chiqarib tashlanadi. Internetdagi ko'p foydalaniladigan Web-sahifalar adreslari maxsus ma'lumotnomalarda chop etib turiladi.

Lekin ulardan to'liq axborot olib bo'lmaydi. Chunki Internetdagi barcha Web-sahifalar adreslarini chop etish uchun juda katta hajmli kitob kerak bo'ladi.

Bu kitob chop etib tugatilmasidan Internetdagi bir qancha adreslar o'zgarishi aniq. Bu muammo maxsus Qidiruv tizimlari yaratilishi bilan osonlikcha hal etildi.

Internet tarmog'i foydalanuvchilari qidiruvni Internet muhitida joylashgan veb-saytlar, ularning manzili va ichki ma'lumotlari bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va tez topish imkoniyatini beradi.

Axborotlarni qidirish. Internet tarmog'i shunday bir muhitki u o'zida turli ko'rinishdagi va turli tillardagi ko'plab axborotlarni jamlagan. Bunda ushbu axborotlar ichidan kerakli bo'lgan ma'lumotlarni qidirib topish muammosi paydo bo'ladi. Internet tarmog'ida har bir foydalanuvchi axborotni qidirish uchun o'zbek, rus, ingliz yoki boshqa tillardagi bir yoki bir necha so'zdan tashkil topgan so'rovlardan foydalanadi. Ya'ni ma'lumotlarni uning sarlavhasi yoki uning tarkibida ishtirok etgan so'zlar va jumlar bo'yicha qidirib topish mumkin. Bunda foydalauvchi tomonidan Internet qidiruv tizimi qidiruv maydoniga kerakli ma'lumotga doir so'z yoki jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi foydalanuvchiga o'zi tomonidan kiritilgan so'z yoki jumlagacha mos keluvchi ma'lumotlarni qidirib topadi va kompyuter ekranida ularning ro'yxatini hosil qiladi. Vanihojat ro'yxatdagi ma'lumotlarni ketma-ket ko'rib chiqilib kerakli bo'lganlari kompyuterga saqlab olinadi.

Axborotlarni parametrlari bo'yicha qidirish. Ko'rib o'tilganidek, har bir foydalanuvchi Internet tarmog'i orqali o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni uning mavzusi hamda tarkibidagi so'z yoki jumla bo'yicha qidirib topishi mumkin, lekin Internet tarmog'ida ma'lumotlar shunchalik ko'pki, ta'kidlab o'tilgan usul samara bermasligi mumkin. Bunday hollarda Internet qidiruv tizimlari qidiruvning bir qancha qo'shimcha usullari bo'yicha qidiruvni taqdim etadi.

Bular:

- ma'lumotlarni uning tili bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning turi (matn, rasm, musiqa, video) bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan mintaqasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashtirilgan sanasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni uning joylashgan Internet zonasi bo'yicha qidiruv;
- ma'lumotlarni xavfsiz qidiruv.

Rasmlarni qidirish. Rasmlar ma'lumotlarning grafik yoki tasvir ko'rinishi hisoblanadi. Internet tarmog'ida grafik ma'lumotlarning ko'plab turlari uchraydi, ya'ni: chizma (vektor), foto (rastr), harakatlanuvchi (animatsiya) hamda siqilgan rasmlar. Bunday grafik ma'lumotlar tarkibida matnli axborot mavjud bo'lmaydi. Shundan ko'rinib turibdiki, demak rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar ustida faqatgina uning nomi yoki turi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Ko'pgina internet qidiruv tizimlari grafik yoki tasvir ko'rinishidagi ma'lumotlarni qidirish uchun alohida bo'limga ega bo'lib, bu bo'lim orqali ixtiyoriy turdagi rasmlarni ularning nomlari bo'yicha qidiruvni amalga oshirish mumkin. Masalan, quyidagi rasmga shunday qidiruv tizimlarining biri tasvirlangan.



Musiqalarni va filmlarni qidirish. Internet tamog'ida matnli yoki rasm ko'rinishidagi ma'lumotlardan tashqari musiqa va video ma'lumotlarning ham ko'plab manbalari mavjud. Internet tarmog'i orqali har bir foydalanuvchi musiqa eshitishi, radio tinglashi, teledasturlar yoki videofilmlarni tomosha qilishi mumkin.

Internet orqali radioeshittirish va teledasturlar namoyishi ma'lum, ushbu turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi tizimlar (serverlar) tomonidan amalga oshiriladi. Internet orqali radio tinglash yoki teleko'rsatuvni tomosha qilish uchun ushbu tizimga bog'lanishni o'zi kifoyadir. Ammo musiqa va filmlar Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlarda alohida material ko'rinishida saqlanadi. Ularni tinglash, tomosha qilish yoki kompyuterga ko'chirib olish uchun avvalo kerakligini qidirib topish zarur. Musiqa va video materiallari ustida ham grafik (rasm) materiallar kabi uning nomi yoki izohi bo'yicha qidiruv olib borish mumkin. Bunda musiqa va filmlarni qidirib topish uchun qidiruv tizimi maydoniga materialning nomi yoki uning izohiga taaluqli biror jumla kiritiladi va qidiruv tizimi ishga tushiriladi. Shundan so'ng qidiruv tizimi tomonidan kiritilgan jumla mos keluvchi musiqa va video materiallar joylashgan veb-saytlarning ro'yhati shakllantiriladi. Ro'yxatdagi veb-saytlar foydalanuvchi tomonidan birin – ketin ko'rib chiqiladi va kerakli materiallar kompyuterga saqlab olinadi.

WWW.UZ
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОИСКОВАЯ

Актуальные | Регистрация | Поиск | Убедитесь | Установить | Форум | Ссылки | О нас | Контакты | RSS

WWW.UZ
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОИСКОВАЯ

В Узнете: по каталогу

Главная | Каталог | Топ-рейтинг | Голосование | Провайдеры | Сводная статистика | Форум

Топ-рейтинг по направлениям

Культура

	Хосты	Хиты
Darshat.UZ - Универсальный развлекательный портал в Tas-UZ	5193	57544
VerchNet - свежие новости	4448	20272
Ziro.UZ - Культурно-просветительский портал	4310	16154
ZiroNET - Информационная образовательная сеть	4061	36849
Uzkino.Net - новые узбекские, зарубежные и турецкие фильмы	3642	6188

Новости и СМИ

	Хосты	Хиты
Ona - новости на узбекском	10721	225542
Газета.UZ - Новости Узбекистана	9398	45577
Adela.UZ - Афиша Ташкента	8575	79852
Kul.UZ - новости Узбекистана и мира	8036	97093
Новости Узбекистана - rodrino.uz	5734	22070

Развлечения

	Хосты	Хиты
Movie.UZ - Видео онлайн	30178	576481
Piday.UZ - Самые популярные сериалы	19581	206318
YouTube - битайн видео ролики, приколы, аниме и клипы	14514	224747
Top Music - Музыкальный Топ	7038	72737

Спорт

	Хосты	Хиты
UFF.UZ - Фанаты Футбола Узбекистана	18562	428773
championat.uz - новости футбола Центральной Азии	9826	143189
Stadion.UZ - Новости футбола	8845	91963
Сайт любителей ОК "Real Madrid"	4989	48296
Futbol.UZ - Мир Футбола	4636	22299

WWW.UZ Milliy axborot-qidiruv tizimi.

WWW.UZ – bu barcha foydalanuvchilar uchun yurtimizning Internet tarmog'idagi milliy segmenti axborotlaridan qulay tarzda foydalanish imkoniyatini beruvchi tizimdir. Milliy axborot-qidiruv tizimini rivojlantirish ishlari axborot va kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish UZINFOCOM Markazi tomonidan olib boriladi. Milliy axborot-qidiruv tizimining asosiy xususiyatlaridan biri uning ko'p tilli axborot qidiruvi (ruscha, o'zbekcha) va boshqa milliy axborot tizimlari va ma'lumot omborlari bilan o'zaro ishlay olishidadir.

WWW.UZ Internet tarmog'i foydalanuvchilariga milliy sigmentda joylashgan veb-saytlar bo'yicha qidiruv xizmatini taqdim etadi va qidiruvni veb-sayt manzili va ichki ma'lumotlari

bo'yicha olib borishi mumkin. Bu esa foydalanuvchiga kerakli bo'lgan axborotni samarali qidirish va topish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari shu WWW.UZ qidiruv tizimi Internet resurslari (vab-saytlari) katalogini va vab-saytlar reytingi yuritadi, saytlar bo'yicha jamlangan statistik ma'lumotlarni to'playdi hamda axborot texnologiyaari sohasidagi yangiliklar va maqolalarni yoritib boradi.

WWW.UZ "Katalog" bo'limi – Internet tarmog'ida ochiq holda joylashgan, O'zbekiston Respublikasiga aloqador bo'lgan, ro'yxatga olingan, izohlari keltirilgan va katalog mavzulari bo'yicha saralangan vab-saytlar to'plami.

WWW.UZ katalogi foydalanuvchilari o'zlariga kerak bo'lgan saytni mavzular bo'yicha (Iqtisod, OAV, Madaniyat va boshqalar) qidirish orqali tezroq topishlari mumkin. Katalog har kuni qidiruv tizimining faol foydalanuvchilari tomonidan yangi saytlar bilan boyitib boriladi.

WWW.UZ ning har bir foydalanuvchisi "Top-reyting" bo'limiga kirib, barcha ro'yxatga olingan saytlar reytingini ko'rishi, "Jamlangan statistika" bo'limida esa ularning statistikasi bilan tanishib chiqishi mumkin.

Qidiruv tizimi - maxsus Web-sahifa bo'lib, Internet tarmog'idan kerakli axborotni izlab topish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunga kelib o'nlab qidiruv tizimlari yaratilgan. Ulardan ko'p qo'llaniladiganlari sifatida **Rambler, Aport, Yahoo, Google** larni keltirish mumkin.

Mashhur Internet qidiruv tizimlari. Internet tarmog'i yirik ma'lumotlar ombori hisoblanadi. Undan kerakli ma'lumotlarni qidirib topish foydalanuvchining oldiga qo'yilgan eng asosiy masalalardan biridir. Bunday hollarda yirik ma'lumotlar omboridan kerakli ma'lumotlarni qidirib topishda axborot-qidiruv tizimlari muhim ahamiyatga ega. Internet tarmog'ida bunday tizimlarning ko'plab turlarini uchratish mumkin.

Bulardan Google, Rambler, Yandex, Yahoo tizimlari o'zbek, rus va ingliz tillarida qidiruvni olib boradigan eng mashhurlari hisoblanadi.



Ushbu mashhur qidiruv tizimlarining har biri oddiy va batafsil kengaytirilgan qidiruv hamda matnli, rasm, musiqa, video va boshqa turli shakldagi axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu turdagi axborot-qidiruv tizimlaridan foydalanib ixtiyoriy foydalanuvchi o'ziga kerakli bo'lgan ixtiyoriy turdagi ma'lumotni qidirib topishi va undan foydalanishi mumkin. Agar sizga biror ma'lumot kerak bo'lib, lekin siz uning qaerda va qanday ko'rinishda joylashganligini bilmasangiz, u holda shu kabi axborot – qidiruv tizimlaridan foydalaning.

Ixtisoslashgan axborot qidiruv tizimlari. Axborot qidiruv tizimlari – bu vab-sayt hisoblanib Internet tarmog'ida axborotlarni qidirish imkoniyatini taqdim etadi. Bunda yuqorida sanab o'tilganidek Google i Yahoo dunyodagi eng mashhur qidiruv tizimlaridan hisoblanadi. Bizning davlatimizda **WWW.UZ** axborot-qidiruv tizimi qidiruv so'rovlari bo'yicha ilg'orlardan biridir. Bundan tashqari Internet tarmog'ida ma'lum sohada ishlaydigan ixtisoslashgan qidiruv tizimlari ham mavjud. Bulardan eng ommaboplar:

"KtoTam" – insonlar to'g'risidagi axborotlarni qidirishga mo'ljallangan yangi turdagi axborot-qidiruv tizimi. Bunda insonlarni ismi, sharifi, familiyasi, kasbi, lavozimi va unvoni hamda tashkilot va boshqa insonlar orqali topish mumkin.

"Tagoo" – musiqalarni qidirishga mo'ljallangan qidiruv tizimi. Boshqa qidiruv tizimlariga nisbatan ushbu tizim o'zining kengaytirilgan musiqa bazasidan va boshqa saytlarning mp3 resurslaridan qidirib ularning ro'yxatini shakllantiradi. So'rovda musiqa nomini, uning ijrochisini hamda albom nomlarini ham kiritish mumkin.

"Truveo" – Internetning turli resurslaridagi videomateriallarni qidirishga ixtisoslashgan axborot – qidiruv tizimi. Bu tizim orqali on-layn video hamda teledasturlar namoyishlarini ham qidirib topish mumkin.

“Kinopoisk” – filmlar to‘g‘risidagi axborotlarni qidirish tizimi. Qidiruv vaqtida filmning nomi, chiqqan yili, janri, ishlab chiqqan davlat nomi, kompaniya nomi, akterlar ismlari hamda rejissarlar va ssenariy mualliflari ism shariflaridan ham foydalanish mumkin.

“Ebd” – elektron kutubxonalardan kitoblarni qidirishga ixtisoslashgan axborot-qidiruv tizimi. Ushbu saytning ma‘lumotlar bazasida elektron ko‘rinishda tarqatiladigan adabiyotlarning ko‘plab mashhurlari to‘plangan. Qidiruv natijalari kitob nomlari bo‘yicha guruhlanadi.

“Ulov-Umov” – rezyume va vakant joylarni qidirish tizimi. Bunda qidiruv jarayonida karera va ishga bag‘ishlangan hamda ijtimoiy tarmoq va boshqa saytlar vakansiyalari tekshiriladi va ro‘yxati shakllantiriladi.

Qidiruv tizimlaridan to‘g‘ri maqsadda foydalanish. Ha, afsuski, bugungi kunda kompyuterga va internetga yoshlar tomonidan birinchi navbatda ko‘ngilochar vosita deb qaralmoqda. Ayniqsa, bolalar kompyuterga ko‘zi tushgan zahoti darrov o‘yinlarni so‘rashadi, ko‘pchilik yoshlar esa Internetga ulangani xaxoti esa rasmlar tomosha qilishni so‘rashadi.

Internet resurslari xilma-xildir. Ularning ichida ham foydali ham zararli bo‘lganlari ma‘lumotlar uchraydi. Internet tarmog‘idagi axborot-qidiruv tizimlari esa Internet resurslari ichidan so‘ralgan ixtiyoriy ma‘lumotlarni qidirib topib berish imkoniyatiga ega. Chunki bunday qidiruv tizimlari kalit so‘zlar bo‘yicha qidirishni amalga oshiradi. Foydalanuvchi tomonidan qanday ma‘lumot kiritilsa, xuddi shu ma‘lumotga mos ma‘lumotlarni qidirib topadi. Shu narsani eslatib o‘tish kerakki, har qanday axborot ham foydali va to‘g‘ri, rost hisoblanavermaydi. Axborot-qidiruv tizimlaridan faqatgina to‘g‘ri va foydali maqsadda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Turli nojo‘ya ma‘lumotlardan foydalanishdan va tarqatishdan saqlanish maqsadga muvofiqdir.

Har bir qidiruv tizimi Internet tarmog‘ida o‘z adresiga ega. Masalan, yuqorida sanab o‘tilgan qidiruv tizimlari mos ravishda **www.rambler.ru**, **www.aport.ru**, **www.yahoo.com** va **www.google.uz** adreslarga ega. Qidiruv tizimi Web-brauzer orqali ishga tushiriladi, ya‘ni brauzerning adreslar satriga qidiruv tizimining adresi kiritiladi. Qidiruv tizimlari (Web-sahifasi) turli ko‘rinishga ega bo‘lgani bilan ularning ishlashi deyarli bir xil. Ulardan foydalanishni Rambler qidiruv tizimi misolida ko‘rib chiqamiz. Qidiruv tizimida ishlash Ramblerni ishga tushirish uchun avval Internet Explorer ni ishga tushiramiz, Brauzerning adreslar satriga Rambler qidiruv tizimining adresi - **www.rambler.ru** ni kiritib Enter tugmasini bosamiz. Brauzer ma‘lumotlar maydoniga Rambler qidiruv tizimining Web-sahifasi chiqadi.

Avvalambor, internetdan qanday axborotni izlashni aniq bilish lozim. U biror mavzu bo‘yicha maqola, o‘yin dasturi, kompyuter qurilmalari drayveri va hokazo bo‘lishi mumkin. Agar biror maqola kerak bo‘lsa, Rambler qidiruv satriga shu maqola nomi yoki maqolada uchirashi mumkin bo‘lgan so‘z yoki jumla, ya‘ni kalit so‘z kiritilib, qidiruv tugmasi bosiladi. Agar biror dasturni topish kerak bo‘lsa, qidiruv satriga shu dastur nomi yoki uning vazifasi kiritiladi. Masalan, WindowsXP operatsion sistemasi uchun Laserjet 1300 printerining drayveri kerak bo‘lsa, qidiruv satriga "Windows XP uchun Laserjet 1300 drayveri" (драйвер Laserjet 1300 для Windows XP) deb yoziladi. Rambler qidiruv satriga kiritilgan axborotni Internet tarmog‘idagi millionlab hujjatlar ichidan izlaydi) Natijada Web-brauzer ma‘lumotlar maydoniga bir nechta (o‘nlab yoki yuzlab) hujjatlarning gipermurojaatli adreslari va ularning qisqacha tavsiflaridan iborat Web-sahifa chiqadi. Topilgan hujjatlar ichidan keraklisini berilgan qisqa tavsifga ko‘ra aniqlab olinadi.

Izlash vaqtini kamaytirish uchun kerakli axborotni mavzu bo‘yicha izlash mumkin. Buning uchun Ramblerning bo‘limlar ro‘yxatida kerakli bo‘lim tanlanadi. Bu ish tanlangan bo‘lim nomi ustiga sichqoncha ko‘rsatkichini olib kelib, chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Shuni aytish joizki, ro‘yxatda umumiy bo‘limlar berilgan Masalan, "Sport", "Yangiliklar", "O‘yinlar", "Kinozal" va hokazo. Bo‘lim tanlangach, qidiruv satrida berilgan axborot Internetning faqat tanlangan bo‘limga tegishli hujjatlari ichidan izlanadi.

“Rambler” endi **“Yandex”** ning qidiruv texnologiyasidan foydalanadi. "Rambler", **1996-yilda** Rossiyaning birinchi qidiruv tizimi sifatida o‘z faoliyatini boshlagan kompaniya, o‘zining qidiruv texnologiyasidan voz kechmoqda. U hozirda "Yandex" kompaniyasi bilan qidiruv texnologiyasi va kontekstli reklama sohasida hamkorlik qilish to‘g‘risida shartnoma imzoladi.

2010-yilning kuzidan beri kuzatuvchilar "Rambler" ning "Yandex" yoki "Google" foydasiga o'zining qidiruv mashinasidan voz kechishini taxmin qilib kelayotgan edi. O'shanda "Rambler" har ikkala kompaniyalar bilan ham muzokaralar olib borgan, tahlilchilar "Rambler"ning "Google" tomon yaqinlashishini kutishayotgan edi.

Biroq, bunday bo'lib chiqmadi. Gap shundaki, "Rambler" 2008- yilning kuzidan beri o'zining saytiga "Google" qidiruvini o'rnatishga harakat qilib kelayotgan edi.

O'shanda u o'zining strategiyasini axborot, yangiliklar qidiruvi tomon o'zgartirgandi. U elektron pochta va qidiruvdan ko'ra ko'proq yangiliklar agregatori hamda ijtimoiy servislarni rivojlantirishga asosiy e'tiborni qaratishni boshlagan. "Rambler", shu bilan birga, "Yandex.Direkt" reklama tarmog'iga ham qo'shildi.

"Yandex" ning ushbu reklama tarmog'iga "Odnoklassniki" ijtimoiy tarmog'i, Mail.ru portali hamda Microsoft korporatsiyasining Bing qidiruv mashinasi ham kiradi.

Bugungi kunda ko'plab mashhur portallar, jumladan LiveJournal.ru, Nigma.ru va QIP.ru "Yandex"ning qidiruv texnologiyasidan foydalanadi. Rambler Media – integrallashgan media kompaniyasi, butun dunyo bo'ylab rus tilida so'zlashuvchi foydalanuvchilarga Internet hamda mobil xizmatlarni ko'rsatadi. Rambler Media kompaniyalari guruhiga internet-portal, Rambler.ru qidiruv tizimi, Lenta.ru yangiliklar sayti, "Rambler Telekom" internet-provayderi, "Index20" reklama agentligi, bir qator mobil texnologiyalar va kontent bilan shug'ullanuvchi "Rambler Interactive" kompaniyasi hamda "Begun" kontekstli reklama servisi kiradi. Bugungi kunda Runetning 14% auditoriyasi, ya'ni 4,2 million kishi "Rambler" ning qidiruv mashinasidan foydalanmoqda. Birlashgan kompaniyaga tegishli internet-loyihalardan 17 million kishi foydalanmoqda.

Yandex – Rossiyaning eng yirik IT-kompaniyalardan biri, **1997-yilda** tashkil qilingan. U qayta ishlayotgan qidiruv so'rovnomalari soni bo'yicha jahondagi qidiruv saytlari ichida 7-o'rinda turadi. Bugungi kunda "Yandex" Rossiyaning internet- qidiruv bozorida 65% ulushga ega. Butun dunyoga mashhur Google esa Runetning qidiruv sohasida 22% ulushga egalik qilmoqda. "Yandex" **2010-yil 19-may kuni** ingliz tilidagi qidiruvlarni amalga oshirish uchun yandex.com saytini ishga tushirdi va bu bilan u xalqaro darajaga chiqdi. Kompaniya **2010-yil** yakunlariga ko'ra 439,7 mln. \$ daromad olib, uning sof foydasi 134,3 mln. \$ ni tashkil qildi.

WAIS (Wide Area Information System) – keng profilli axborot sistemasi. Kirish uchun ochiq berilganlar bazasi sistemasi. U tarmoq resurslarini indekslangan ma'lumotlarini saqlovchi global berilganlar bazalarini majmuidir. Wais taqsimlangan berilganlar bazasida qandaydir satr yoki kalit so'zlar yordamida ma'lumotlarni topish imkoniyatini beradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Wais fayl nomlari va formati bilan emas, balki ularda joylashgan matnlardan tashkil topgan berilganlar bazasi bilan ish ko'radi.

Wais da boshqa xost kompyuterlarda mavjud berilganlar bazasi bilan bevosita aloqa bog'lab, kerakli hujjatni undan avtomatik ravishda oladi. Demak, Wais tufayli intermurojaatlar turli bazalar sistemasi bilan ham bog'langan. Bundan tashqari Wais da mavjud berilganlar bazasiga yangi berilganlar bazasini qo'shish mexanizmi yaxshi ishlab chiqilgan, Waisda ishlatiladigan matnlardan tashkil topgan fayllardagi matnlar o'lchoviga hech qanday chegara yo'q. Bunday imkoniyat hozirda tijorat maqsadlarida ma'lumot olishda keng qo'llanilmoqda.

FINGER bu Internetning buyrug'i bo'lib, u foydalanuvchilar haqida ma'lumotlar olish uchun xizmat qiladi. Uning deyarli barcha operatsion sistemalar (Dos, Windows) uchun versiyalari mavjud. Finger buyrug'ini bajarish (Unixda) quyidagicha bo'ladi. Finger foydalanuvchi ro'yxat nomi (login). Misol uchun: Finger zaripov@law.silk.org buyrug'i bilan Internet bilan bog'lanilsa, Finger orqali zaripov haqida ma'lumot olish mumkin. Finger dan foydalanish uchun foydalanuvchining nomi (login) va foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan kompyuterning to'la nomini bilish kerak.

Bu ma'lumotlar ma'lum bo'lsa, Finger foydalanuvchi to'g'risida quyidagi ma'lumotni beradi: uning ismi sharifi, uy katalogi, Internet bilan oxirgi marta qachon aloqa qilgani, o'qilmagan elektron pochta birligi. Ayniqsa oxirgi ma'lumot ko'p hollarda foydali bo'lishi mumkin.

Chunki xususan siz yuborgan xatingizni o`qilgan yoki o`qilmagani (olmagani) haqida ma'lumotga ega bo`lasiz.

Finger yordamida plan (shaxsiy reja) agarda u uy katalogida joylashtirilgan bo`lsa, faylini ham ochib ko`rish imkoniyati mavjud. O`z shaxsiy plan faylingizda esa hoxlagan rejani yozishingiz mumkin. Fingerdan foydalanish har doim muvafaqiyatli kechavermaydi. Quyidagi uch holatda u kerakli natijani bermasligi mumkin. Finger foydalanuvchini topa olmaydi. Bunda **Finger attain** paydo bo`ladi. Bu esa foydalanuvchi adresi noto`g`ri kiritilganini bildiradi. Finger kompyuterni topolmaydi, **Finger unknown host: zaripov@law.silk.org**. Bu xato kompyuter nomini noto`g`ri ko`rsatilganda paydo bo`ladi. Kompyuter **Finger** buyrug`ini topa olmaydi.

Finger zaripov@law.silk.org. Finger: Command not found (buyruq topilmadi).

Bu uzoqlashgan kompyuter – serverda mijoz kompyuter Finger buyrug`ini topa olmadi va shuning uchun bu buyruqni bajara olmadi. Buning sababi Finger Internetning barcha kompyuterlarida bo`lmasligidan dalolat beradi. Finger yordamida, xususan turli sohalarga oid yangiliklarni ham olib turish mumkin. Misol uchun: **Finger nasanews@space.mit.edu** buyruq yordamida **NASA** yangiliklarini olish mumkin. Er qimirlash haqidagi ma'lumotlar esa **Finger spyder@dns.iris.washington.edu** buyrug`i orqali olinadi.

ARCHIE. Mavjud fayllar haqidagi ma'lumotlar turli serverlarda bo`ladi. Archie kalit so`zlar orqali serverlarga talabnoma yuborish uchun xizmat qiladi. Mavjud sistema orqali archiega kirish mumkinligini tekshirish archie enter buyrug`i bilan amalga oshiriladi.

VERONICA programmi **Veronica (Very Easy Rodent – Oriented Net – wide Index to Computer Archives** – qiziquvchilar uchun kompyuter arxivlari bo`yicha ma'lumot beruvchi) ma'lumot va fayllar joylashgan serverni topish uchun xizmat qiluvchi programmadir. Gopher serverlarga kirish oson bo`lishiga qaramasdan ba`zan qidirilayotgan ma'lumot yoki fayl qaysi serverdaligini topish qiyin bo`lishi mumkin. Bu holda Veronicadan foydalanadi va u qaysi serverda qiziqtirayotgan fayl yoki ma'lumot borligini aniqlab beradi. U Gopher serverlarda menyu punktini aniqlab beradi. Undan ishlatish uchun Veronica serverga kirishni amalga oshiruvchi Gopher serverdan foydalanadi. Veronica ma'lumotlar bazasi dunyoda mavjud Gopher serverlarni skanerlash hisobiga to`plashgan bo`ladi. Uning ma'lumoti ma'lumotlar bazasiga gopher.tc.umn.edu serveri orqali kiritiladi. Bunda Other gopher and Information Servers (Boshqa Gopher va axborot serverlar) menyusi tanlanadi va uning Search Gopher space using Veronica bandi tanlanadi. Bunda ma'lumotlarning archive dan ko`ra osonroq tanlanishiga sabab Gopher serverlarning fayllar nomlari bilan emas, menyu bandlarini matnlar yordamida tasvirlashidir. Bunday axborot ko`proq tushunarlidir. Bu matnlar yordamida fayl yoki kataloglarning nomlari aytilishidan ko`ra ularning mazmuni so`zlar bilan aytilishini tushunish osonroq. Misol uchun biror mavzu bilan fayl nomini, faylni topishdan ko`ra ko`proq ma'lumot beradi. Shuning uchun Veronica archive topolmagan fayllarni ham topib beradi. Veronica Gopher fayllarni tadqiq qilib bo`lgandan so`ng topshiriq asosida bajarilgan barcha ishlarning menyu ro`yxatini beradi. Uning yordamida kerakligini Gopherdagidan tanlash mumkin.

ALTA-VISTA nomli programma **WWW** da ma'lumotlarni qidirishning zamonaviy serverlaridandir. Uning yordamida hatto rus tilida turli kodirovkada tayyorlangan ma'lumotlarni ham qidirish imkoniyati mavjud. U KOI-8 va Windows 1251 kodlarida berilgan sahifalarni o`qiy oladi. Keyingi paytda u orqali kuniga millionlab foydalanuvchilar turli ma'lumot bazalariga, telekonferentsiyalarga murojaat qilib turibdi.

Interaktivlik tushunchasi. Interaktivlik deganda biz, faqatgina, biz o`rganayotgan fan kesimida texnik vositalar, kompyuter, ularning dasturlari hamda foydalanuvchilar orasidagi o`rnatilgan muloqatni tashkil etish tushuniladi. Demak, Kompyuter dasturlari shunday yaratilganki, Biz u yordamida kompyuter bilan muloqat o`rnatamiz. Umuman olganda interaktivlik bu muloqat tizimini tashkil etish bilan bog`liq. Ya`ni, maqsadga ko`ra tizim elementlari orasidagi axboriy ma'lumotlar almashinuvi. Ushbu tushuncha axborot nazariyasi, informatika va dasturlash, telekommunikatsiya tizimlari, sotsiologiya va boshqa sohalarda qo`llaniladi.

Интерактив xizmatlar tushunchasi. Interaktivlik orqali foydalanuvchi moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, axboriy va ishlab chiqarishning turli manbalaridan ko'riladigan manfaat mavjud bo'lsa, unga interaktiv xizmat qilingan deb tushuniladi. Ya'ni, kompyuter dasturlari orqali foydalanuvchiga interaktiv xizmat tashkil etilgan deb tushuniladi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlari. Hozirgi vaqtda, Hukumatimiz tomonidan interaktiv xizmatlarni shakllantirish, tashkil etish va ularni boshqarishga katta e'tibor berilmoqda. Interaktiv xizmatlarni tashkil etishning eng tez va yaxshi yo'li, bu, ularni internet tarmoqlari orqali amalga oshirish hisoblanadi.

Internet tarmog'i orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmat turlariga quyidagilar kiradi:


Transport vositalarining harakatlanish jadvali. Respublikadagi transport vositalarini harakatlarini ifodalash jadvali bir nechta saytlarda berilgan. Foydalanuvchi saytdan o'ziga maqul transport vositalarini qatnovi jadvallari haqidagi ma'lumotlarni topadi. Quyida ushbu veb sahifalarni keltirilgan:

<http://www.orexca.com> – sayyohlar uchun mo'ljallangan veb sahifa;

<http://www.tgpt.uz> – toshkent shahridagi transport vositalari haqidagi veb sahifa;

<http://www.goldenpages.uz/> - O'zbekiston transport qatnovi reys jadvallari sahifasi.

Avia reyslar jadvali. Avia reyslari bo'yicha ma'lumotlar jadvalini aniqlash, ulardan foydalanish uchun <http://G'G'uzairways.com> - O'zbekiston xavo yo'llari aviya kompaniya veb sahifasiga murojat qilinadi. Saytda xalqaro va O'zbekiston miqyosidagi aviya qatnov jadvallari keltirilgan.



Temir yo'l transporti qatnovi jadvali. Respublika ichki va tashqi temir yo'l qatnovlari jadvallari va ular haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan topish mumkin.

1. uzrailpass.uz - temir yo'l transport qatnovi jadvali.

2. www.roxanatour.com - Bu sayoxlik firmasi sayti bo'lib, bunda siz xalqaro va O'zbekiston ichidagi temir yo'l qatnovlari va havo yo'llari qatnovi jadvallari va u erda joylashgan mexmonxonalar xaqida ma'lumot va buyurtmalar majmualarini aniqlashingiz mumkin.

Bank xizmati ma'lumotlari va valyuta kurslari. O'zbekistondagi barcha banklar xaqidagi ma'lumotlar va yangiliklar, kunlik valyuta miqdorlari haqidagi ma'lumotlarini quyidagi saytlardan olish mumkin:

www.bank.uz ;

www.mikrokreditbank.uz;

www.agrobank.uz;

www.asakabank.com;

www.new.nbu.com;

www.uzpsb.uz;

www.infinbank.com;

www.xb.uz;


www.ipotekabank.uz;

www.csb.uz;

va hakoza banklar.

Ob havo ma'lumotlari. Respublika barcha viloyatlari va Toshkent shahri hamda halqaro miqyosda ob - havo haqidagi ma'lumotlarni quyidagi, O'zbekistonda yaratilgan veb sahifalardan aniqlash mumkin. ob-havo.uz; www.pogoda.uz ; www.meteoprogram.uz.

Ob-havo prognozi bo'yicha eng to'liq ma'lumotlarni www.meteoprogram.uz veb sahifasidan olish mumkin. Sahifa dizayni ham foydalanuvchilar uchun juda qulay.



Yangiliklar. O'zbekiston Respublikasida faoliyatlari dorasida olib borilayotgan asosiy yangiliklar majmuasini uza.uz, gov.uz hamda desk.uz veb saytlari orqali topish mumkin. Ushbu veb sahifalarda Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlar mavjud.

Tele va radioeshittirish dasturlari. O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi ma'lumotlari va teledasturlar jadvalini hamda ularning faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan olishingiz mumkin. www.mtrk.uz;

Ish o'rinlar birjalari. Respublika doirasida bo'sh ish o'rinlarini topish, aniqlash va muloqat o'rnatish quyidagi veb sahifalar orqali amalga oshirilishi mumkin. www.myjob.uz, www.vakansi.uz bu saytlardan siz ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni va Siz, o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlarni to'ldirib jo'natishingiz va javob olishingiz mumkin.

Sport yangiliklari. Respublika va xalqaro sport musobaqalari, ularning o'tkazilish jadvallari va holatlari haqidagi ma'lumotlarni quyidagi veb sahifalardan qidirish mumkin: www.uff.uz; www.the-uff.com; www.paxtakor.uz; www.bunyodkor.uz; www.fifa.com. Bu saytlardan O'zbekiston futboli va jaxon futboli yangiliklarini olishingiz mumkin. www.allsportsites.net bu saytdan esa sport turlari reytingi yangiliklari haqidagi ma'lumot olishingiz mumkin.

Portal.uz sport yangiliklari.



Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati – idoralar tomonidan idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiyalar tarmog'i orqali jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ko'rsatiladigan xizmatlar.

Interaktiv davlat xizmati quyidagi shakllarda ko'rsatiladi:

– Umumiy foydalaniladigan axborotni e'lon qilish (tarqatish) - tegishli axborot tizimlari, shu jumladan Internet orqali davlat axborot resurslaridan foydalanish bo'yicha xizmatlarni realizatsiya qilish;

– Bir tomonlama o'zaro hamkorlik - elektron shakldagi hujjatlarning har xil formulyarlaridan foydalanish imkoniyatini berish;

– Ikki tomonlama axborot ayirboshlash - so'rov bo'yicha qabul qilish, tahlil (ko'rib chiqish) va javob yuborishni o'z ichiga oladigan idora xizmatlari (buyurtmanomalar va murojaatlarni taqdim etish, ularni qayta ishlash natijalarini taqdim etish vaG'yoki berish);

– Elektron shakldagi ma'lumotlar to'liq ayirboshlanishini amalga oshirish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish va ularga haq to'lash shaklida ko'rsatilishi mumkin.

Bugungi kunda davlat organlarining veb-saytlari orqali aholiga interaktiv davlat xizmatlari asosida **384 turdagi** interaktiv xizmatlar ko'rsatiladi.

Quyidagi veb sahifalardan Davlat boshqaruv va xo'jalik yurituvchi organlar veb sahifalari orqali ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlari, ular faoliyati haqidagi yangiliklar, xabarlarni topish mumkin.

– O'zbekiston Respublikasi xukumatinnig portali. <http://www.gov.uz>

– O'zbekiston Respublikasi xukumatinnig portali. <http://www.aci.uz>



Amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish qoidalari va xavfsizlik choralari.

Berilgan nazariy ma'lumot bilan tanishib chiqiladi va topshiriqlar variantlari ketma-ket bajariladi va natijalar olinadi.

Kompyuter xonasida xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya – gigiyena talablariga amal qilinadi.

Topshiriqlar variantlari (masala, misol, keyslar).

1. Internet haqida ma'lumot bering.
2. Google qidiruv tizimi haqida ma'lumot bering.
3. Yandex qidiruv tizimi haqida ma'lumot bering.
4. Rambler qidiruv tizimi haqida ma'lumot bering.
5. Yahoo qidiruv tizimi haqida ma'lumot bering.
6. www.uz milliy qidiruv tizimi haqida ma'lumot bering.
7. Intenet interaktiv xizmatlari xaqida ma'lumot bering.
8. Internet orqali xizmat qiluvchi bank interaktiv xizmatlari xaqida ma'lumot bering.

Nazorat savollari.

1. Internet texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Qidiruv tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. Qidiruv tizimidan to'g'ri foydalanish deganda nimani tushunasiz?
4. Axborotlarni parametrlari deganda nimani tushunasiz?
5. Interaktivlik deganda nimani tushunasiz?
6. Interaktivlik xizmatlari deganda nimani tushunasiz?
7. Intenet tarmog'i orqali xizmat qiluvchi qanday interaktiv xizmatlar xaqida bilasiz?
8. Internet nima?
9. Axborotlarni parametrlari orqali qidirib topish deganda nimani tushunasiz?